



RESPUBLIKADA DAROMADLAR TENGSIZLIGINI KAMAÝTIRISHDA MAHALLA INSTITUTI IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO‘LLARI

Axmadjonov Otabek Baxtiyor o‘g‘li

TDIU magistranti

Daromadlar tengsizligini qisqartirishning eng optimal yo‘llaridan biri bu - kambag‘al oila a‘zolari bandligini ta‘minlash masalasidir. Kambag‘al oilalarga ommaviy kredit berish, xohish-istak bo‘lmasada qoramol, parranda berish, uzluksiz ijtimoiy himoya qilish ularda boqimandalik kayfiyatini ham yuzaga keltiradi. Aksincha, kambag‘al bo‘lsada, biroq, ishlash istagi mavjud ishsiz, daromadi o‘ta chegaralangan oila a‘zolarining bandligiga erishish iqtisodiy tashabbus va ishbilarmonlik ko‘nikmalariga asta-sekin yo‘l ochadi. Eng asosiysi, ularda daromad manbalari paydo bo‘ladi. Zero, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish, xalqning turmush darajasi va daromadlarini oshirish, har bir hududning tabiiy, mineral xom-ashyo, sanoat, qishloq xo‘jaligi, turistik va mehnat salohiyatidan kompleks va samarali foydalanishni ta‘minlash¹ga qaratilgani ham bejiz emas. Bu borada mahalla tizimi, mahalla ixtisoslashuvi yangi iqtisodiy imkoniyat beradi.

Boshqa mamlakatlardan farqli o‘laroq, mahalla instituti yurtimizda ming yillar davomida sinalgan va chuqur ildiz otgan, aholini birlashtirib turadigan ijtimoiy hodisa sifatida shakllanib kelmoqda. Masalan, Toshkentda XVIII asrda 150 ta mahalla faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, XIX asrda ularning soni 200 taga etgan, XX asr boshlarida esa 250 ta mahalla bor edi². Ayniqsa, uning hozirgi bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida xalqimizning urf-odatlarini, an‘ana va qadriyatlarini saqlab qolish, odamlarni

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni. //Xalq so‘zi, 08.02.2017 y. №28 (6722).

² Qoraev S. Toshkent toponimlari. // Mas‘ul muharrir A.R.Muhammadjonov./- T.: “Fan”, 1991. – 32-bet.



jipslashtirish, ular o'rtasida mehr-oqibat tuyg'ularini kuchaytirish omili sifatida maydonga chiqayotgani quvonarli holdir.

Daromadlar tengsizligini qisqartirishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish instituti – mahalla faoliyatining tashkiliy asoslarini yanada takomillashtirish, uning vazifalari ko'lamini kengaytirish, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari bilan o'zaro yaqin munosabatlarini ta'minlash alohida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Keyingi yillardan boshqaruv sohasini markazlashtirishni cheklash, bu boradagi vazifalarning bir qismini respublika darajasidan viloyat, tuman va shahar miqyosiga o'tkazish, O'zbekistonda mahalliy o'zini o'zi boshqarishning noyob shakli bo'lgan mahalla tizimini shakllantirish masalasiga katta ahamiyat qaratilib kelmoqda. Shu bilan birga, mahallalarda tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish imkonini beruvchi quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda: aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashda mahallaning aniq yo'naltirilgan faoliyatini belgilash; mahallani xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish sohasidagi vazifalarni aniq belgilash; mahallaning davlat boshqaruv organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazorati olib borish tizimidagi vazifalarini yanada kengaytirish.

Uzoq yillar davomida yurtimizda ayrim mahallalar hunarmandchilik mahsulotlari (do'ppi, gilam, cho'pon, chinni idishlar, temirchilik) yoki bolalar beshigi tayyorlashga, ayrim mahallalar esa ko'nchilik, yashikchilik, asalarichilik, sholichilik va boshqa mahsulotlarni sifatli, bozorbop qilib etishtirishga moslashib borgan. Natijada, mahallalarda mahsulot etishtirishning zamonaviy texnologiyasi shakllangan bo'lib, bu texnologiya sir tutilgan, ya'ni tijorat siri sifatida qaralgan. Bu bilan mahalla muayyan turdagi tovar ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishga ixtisoslashish orqali yaxshigina daromad topgan.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng, mahallalarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Chunki mahalla-o'z-o'zini boshqarishning xalqimiz an'analari va qadriyatlariga xos bo'lgan usuli hisoblanadi. Mahalla qadimgi milliy yashash



tarzimizni ham o'zida mujassam etadi. Boisi hamjihatlikda mahalla a'zolari barcha ishlarni bajarganliklari bois, uning nufusi tarbiyaviy, ma'naviy, ijtimoiy va iqtisodiy ahamiyatga egadir. Har bir mahalla o'z hududida ishlab chiqarishni tashkil etishi, kichik korxonalar ochishi, o'zi ishlab chiqargan mahsulotni sotishi, uning bir qismini esa mahalladagi ehtiyojmand, kambag'al oilalarga bepul tarqatishi, o'z hududidagi kambag'al oilalarning ishsiz farzandlari va ayollarni ish bilan bandligini ta'minlashga sharoit yaratiladi.

Demak, mahallaning o'zidagi mavjud imkoniyatdan foydalanib daromadlar tengsizligi va kambag'al oilalar sonini kamaytirish, ularning ma'lum qismini daromad olishga yo'naltirish orqali farovonligini oshirish mumkin.

Joriy yilda tumanlar byudjetiga qo'shimcha manbalarning kamida 10 foizini bevosita mahalladagi muammolarni hal etishga sarflash bo'yicha ishlarni boshlab, bu maqsadlarga 70 milliard so'm ajratildi. Endi bu vakolatni yanada kengaytirib, tuman byudjeti xarajatlarining 5 foizini ham ana shunday maqsadlarga yo'naltirish bo'yicha yangi tartib joriy etish³ mahallalarni tovar va xizmatlarga ixtisoslashuvini yanada mustahkamlaydi.

«Mahallalar ixtisoslashuvi» oilalarda tadbirkorlik ko'nikmalarining yanada rivojlanishiga, ishsiz yoshlar, ayollar bandligini ta'minlashga yordam berib, oilalarni kambag'allik holatiga tushib qolmaslikni ta'minlaydi. Mahallalarning tovar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishga ixtisoslashuvi asosida tayyorlangan mahsulotlar o'ta talabchan xaridor talablarini qondirish bilan birga, oilalarni uy ishlarini o'z vaqtida bajarish, farzand tarbiyasi, chorva hayvonlarini boqish, ta'lim olishga ham vaqt ajratiladi.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi 2020 yil 29 dekabr. –T: "Ozbekiston nashriyoti" 2021. 49-b



Butun mamlakatda pandemiya munosabati bilan 2019-2020 yillar mobaynida karantin choralari kuchaytirilgan bo'lsada, mahallalarda ishlab chiqarish jarayoni davom ettirildi. Ehtiyojmand oilalarni esa, manzilli qo'llab-quvvatlash zarurati oshgan vaqtda Prezident tashabbusi bilan joriy etilgan «temir daftar»lar yuqori samara berdi va ijtimoiy barqarorlikni saqlab qolish uchun asos bo'lib xizmat qildi. Hozirda ham mahallalarda «temir daftar»lar oilalarni kambag'allikdan chiqarish ishlarini rejali tashkil etish, ro'yxatdagilarga qarab keyingi ishlarni muvofiqlashtirishda qo'l kelmoqda. Yoshlar va ayollar daftarlari ham kasb-hunar o'rgatishga ishtiyoqi bor bo'lgan ishsiz yoshlar va xotin-qizlarga ham alohida e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 avgustdagi PQ-5214-son «Mahallalarda tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlik sub'ektlari bilan aholi o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori bilan mamlakatda «mahallabay» ishlash asosida «og'ir» mahallalarda tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash uchun 100 million AQSh dollari ajratildi⁴ (1-jadval).

1-jadval.

O'zbekistonda «mahallabay» ishlash tizimi joriy etiladigan mahallalar soni va ajratiladigan moliyaviy resurslar⁵

T/r	Hudud nomi	Jami mahallalar soni	«og'ir» mahallalar soni	Ajratiladigan mablag' (mln AQSh doll.)
	Jami	7 838	500	100
1.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	422	38	7,6
2.	Buxoro viloyati	544	42	8,4

⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 avgustdagi 504-son «Mahallalarda tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlik sub'ektlari bilan aholi o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori qarori asosida ajratilgan.

⁵ <https://lex.uz/docs/5562556>



3.	Jizzax viloyati	299	27	5,4
4.	Qashqadaryo viloyati	792	52	10,4
5.	Navoiy viloyati	307	27	5,4
6.	Namangan viloyati	777	52	10,4
7.	Samarqand viloyati	1 114	52	10,4
8.	Surxondaryo viloyati	721	47	9,4
9.	Sirdaryo viloyati	236	27	5,4
10.	Toshkent viloyati	1 050	52	10,4
11.	Farg'ona viloyati	1 050	52	10,4
12.	Xorazm viloyati	526	32	6,4

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, og'ir mahallalar soni Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo, Toshkent va Farg'ona viloyatlarida boshqa viloyatlardan nisbatan birmuncha ko'p. Tuman va shahar sektor rahbarlari tomonidan «og'ir» mahallalar ikki bosqichda aniqlanadi. Birinchi bosqichda har bir xonadonga birma-bir kirib, oilalar uchta toifaga ajratiladi:

1. O'ziga to'q xonadon — oila daromadi yuqori, o'zgarar yordamiga ehtiyoji bo'lmagan xonadonlar;
2. O'rta xonadon — jon boshiga to'g'ri keladigan daromadi minimal iste'mol xarajatlari miqdoridan yuqori bo'lsada, oila a'zolari ichida ishsiz yoki tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish istagi bor xonadonlar;
3. Ehtiyojmand xonadon — jon boshiga to'g'ri keladigan daromadi minimal iste'mol xarajatlari miqdoridan kam, oila a'zolari ichida mehnatga layoqatli bir yoki undan ko'p ishsizlar mavjud xonadonlar.⁶

Ikkinchi bosqichda esa, xonadonlarni o'rganish asosida mahallalar 3 guruhga bo'linadi:

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 avgustdagi PQ-5214-son «Mahallalarda tadbirkorlikni yanada qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlik sub'ektlari bilan aholi o'rtasidagi kooperatsiyani rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori asosida.



1. O‘ziga to‘q, barqaror mahalla;
2. O‘rta mahalla;
3. «Og‘ir» mahallalardir.

Bugungi kundagi mahallalarda asosiy muammo «og‘ir» mahallalarda kambag‘al oilalar bilan olib borilayotgan ishlarning etarli darajada emasligidir. Bu mahallalar yangi tuzilgan mahalla bo‘lsa, bizning fikrimizcha, ishsiz va ehtiyojmand oila farzandlarini talabga mos kasb-hunarga bepul o‘qitish kerak. Buning uchun sektor rahbarlari va a‘zolari birma-bir xonadonlarga kirib, ehtiyojmand xonadonlarni iqtisodiy holati va imkoniyatlarini, kambag‘allik sabablarini aniq bilib so‘ngra tegishli qaror qabul qilishi zarur bo‘ladi.

Mahalla ixtisoslashuvidan kelib chiqib, xonadonlarda tomorqa erlaridan samarali foydalanish, ularning daromadligini yanada oshirish, mahsulot ishlab chiqarish uchun zarur asbob-uskuna va xom-ashyo bilan ta‘minlashga ko‘maklashish, ayniqsa, mahsulotni sotish jarayoniga tajribali tadbirkorlarni biriktirish kerak bo‘ladi. “Og‘ir” mahallaga biriktirilgan tadbirkor faoliyati ham shu mahalla ixtisoslashuviga mos bo‘lishi hamda hayotiy tajribaga ega bo‘lishi zarur. Amaliyotda bu mexanizm deyarli ishga solinmayapti. Buning uchun har bir hududdagi “etakchi” tadbirkorlik sub’ektlariga “og‘ir” mahallalarda kasanachilikni rivojlantirish va mahallalarni ixtisoslashtirish uchun uch yildan besh yilgacha, Markaziy bank asosiy stavkasining 75 foizidan oshmagan va bazaviy hisoblash miqdorining kamida 5000 baravarigacha miqdorda kredit ajratish maqsadga muvofiq. Shundagina “og‘ir” mahallar soni qisqara boshlaydi.

Qolaversa, «og‘ir» mahallalardagi kambag‘al aholi qatlami har xil yondashuvlar toifalariga qarab bir xil bo‘lmasligi kerak. Avvalo, mahalladagi 1-toifa: doimiy kambag‘allar (yakka-yolg‘iz ayrim penzionerlar, qarovchisi yo‘qlar, nogironligi bo‘lgan shaxslar, boquvchisi yo‘qotgan yoki ko‘p bolali oilalar)ning aniq hisobini yuritib, ularga davlat tomonidan uzluksiz moddiy ko‘mak berish zarur. Boisi, ushbu



toifaga kiruvchilar o'z daromadlarini ko'paytirish imkoniyatiga ega emaslar. Shu sababli ularga tibbiy xizmat va oliy ta'lim bepul bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Mahalladagi 2-toifa: ayni vaqtda ishsizlar, o'z iqtisodiy faoliyatini moliyaviy etishmovchilik sabab yo'lga qo'ya olmagan balog'at yoshidagi yoshlar va ayollar. Bu toifaga kiruvchilarni yangi kasbga qayta tayyorlash, ayollar va yoshlarda qiziqishlariga qarab tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va moliyaviy ko'mak berib biznesga yo'naltirish zarur. Bu bilan ularni kambag'allar toifasidan qisqa muddatlarda chiqarish va ularning barqaror daromad olishlari uchun sharoit yaratish mumkin bo'ladi. Bu toifadagi oilalarga 3-6 oy davomida moliyaviy ko'mak berilishi zarur.

Mahalladagi 3-toifa: kambag'allikka yuz tutish xavfi yuqori bo'lgan kam daromadli ishchilar, ya'ni, farrosh, qarovul, kasbi zamon talablariga javob bermay qolgan mutaxassislar, ayrim sabablarga ko'ra ishsiz qolganlar, farovonlikka intilmaydigan shaxslar. Ular kambag'al toifaga tushib qolmasliklari uchun o'z faoliyat sohalarini o'zgartirishlari, qo'shimcha daromad olishga intilish, mavjud har qanday imkoniyatdan foydalanishni kengaytirishlari kerak bo'ladi.

Demoqchimizki, 1 toifa kam ta'minlangan aholi qatlamini har tomonlama qo'llab quvvatlash zarur, qolgan toifa vakillariga o'zlarini zarur daromadlari bilan ta'minlaydigan sharoitlar yaratilsagina, qisqa muddatda mahalla o'ziga to'q, moliyaviy jihatdan barqaror bo'lgan na'munali mahallaga aylanadi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 avgustdagi 504-sonli qarorida har bir og'ir mahallaga 2 mlrd so'mdan mablag' ajratish, mahallalarda «o'sish nuqtalari»ni aniqlash aniq belgilab qo'yildi. Bunda, har bir mahallada aholining azaldan shakllangan mehnat ko'nikmasidan kelib chiqib, eng samarali faoliyat sifatida — hunarmandchilik, kosibchilik, tomorqa va issiqxona xo'jaligi, gulchilik, chorvachilik, parrandachilik va kichik ishlab chiqarish yo'nalishlari belgilanib, mazkur yo'nalishlar iqtisodiy jihatdan istiqbolli, deb qaralmoqda.

Mamlakatimizda hokim yordamchilari yordamida 2022 yilning birinchi choragida har bir mahallaning ixtisoslashuvi aniqlab olindi. Dehqonchilik va bog'dorchilikka



ixtisoslashgan 2,5 mingta mahalla “lider” tadbirkorlar orqali rivojlantiriladi. Yana 2,5 mingta mahalla chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilikka ixtisoslashgan bo‘lib, ularni rivojlantirish uchun:

- kamida 1,5 mingta mahallaga inkubator;
- har bir viloyatda kamida 20 mingta xonadonga 20-100 tadan xonaki tovuq;
- 1000 tagacha mahallada 5-10 ta xonadonga asalari uyalari tarqatiladi.

Bu chora-tadbirlar orqali birinchi yarim yillikda aholi xonadonlarida chorvachilik, parrandachilik, baliqchilik, asalarichilik yo‘nalishlarda kamida 140 ming nafar aholi bandligini ta‘minlashga imkoniyat yaratadi. Hunarmandchilik, tikuvchilik, kosibchilik, qandolatchilik kabi uy sharoitidagi kichik ishlab chiqarish loyihalarini mahallaning o‘zida kengaytirish zarur. Shu munosabat sanoat, hunarmandchilik va kasanachilik mikro markazlarini 700 ta ixtisoslashgan mahallada tashkil etish belgilandi. Bu markazlarning 70 tasi ishsizlik darajasi yuqori bo‘lgan mahallalarda ochilishi zarur. Ushbu markazlardan 5 yil muddatda er va mol-mulk solig‘i undirilmaydi⁷.

⁷ Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida o‘tkazilgan “Mahallabay ishlash tizimi natijadorligini oshirish hamda aholi bandligini ta‘minlash masalalari” yuzasidan videoselektor yig‘ilishi ma‘lumotlari. 2022 yil, 19 aprel.
(<https://www.facebook.com/PressSecretaryUZ>)|Instagram (https://www.instagram.com/press_secretary_uz/)|Twitter (https://twitter.com/Press_Sec_Uz)